

«STATIK IP ADRES» QO‘SHIMCHA XIZMATI

Xizmat Asosiy xizmat bilan bog‘langan

Qo‘shimcha xizmatni taqdim etish qoidalari va shartlari

1. Zarur holda, Abonent «Statik IP adres» - doimiy (barcha abonent sessiyalari uchun o‘zgarishsiz) mijoz bilan IP adresga ega ularishni taqdim etish qo‘shimcha xizmatidan foydalanish imkoniga ega. Ajratilgan IP adres Operator tomonidan taqdim etiladi va «Internet va TAS-IX dan foydalana olish» Asosiy xizmati bilan birga foydalanishi mumkin.
- 1.2. «Statik IP adres» qo‘shimcha xizmatining narxi amaldagi Narxnomada ko‘rsatiladi.
- 1.3. Xizmatni aktivatsiya qilishning minimal muddati – 1 oy. Xizmatdan foydalanishning maksimal muddati - cheklanmagan.
- 1.4. Xizmatdan kalendar oyining faqat birinchi sanasidan foydalanish mumkin va kalendar oyining o‘rtasida aktivlashtirib bo‘lmaydi.
- 1.5. Xizmatni aktivatsiya qilish Abonentning Sotuvlar Ofisiga yozma arizasi asosida yoki «Internet va TAS-IX dan foydalana olish» Asosiy xizmati aktivatsiya qilinganidan keyin bajarilishi mumkin.
- 1.6. «Internet va TAS-IX dan foydalana olish» Asosiy xizmati blokirovka qilinganda «Statik IP adres» qo‘shimcha xizmati ham Asosiy xizmat aktivatsiya qilingunga qadar blokirovka qilinadi.
- 1.7. «Statik IP adres» xizmatini aktivizatsiya qilgan Abonentning ushbu xizmatni muddatidan oldin deaktivatsiya qilish xohishi bo‘lganda quyidagi qoidalar amal qiladi:
 - 1.7.1. Abonent-jismoniy yoki yuridik shaxs xizmatni deaktivatsiya qilish sanasini ko‘rsatgan holda sotuvlar ofisida xizmatni deaktivatsiya qilish uchun yozma arizani rasmiylashtirishi zarur.
 - 1.7.2. To‘liq bo‘lgan oy uchun «Statik IP adres» xizmati davri summasi 1 oy sifatida hisob-kitob qilinadi.
 - 1.7.3. «Statik IP adres» xizmati uchun avval hisobdan chiqarilgan summa kuyadi, qaytarib berilmaydi yoki qayta hisob-kitob qilinmaydi.
- 1.8. «Statik IP adres» xizmati Asosiy xizmatlardan alohida taqdim etilmaydi.
- 1.9. Abonent Asosiy xizmatlar uchun abonent to‘lovini belgilangan davrda to‘lamagan holda, Operator «Statik IP adres» xizmatini bir kalendar oyiga blokirovka qiladi. Keyingi oyda Operator ushbu xizmat bo‘yicha abonent bilan kelishuvni bir tomonlama tartibda tugatadi. Ajratilgan adres boshqa shaxsga berilishi mumkin.
- 1.10. Operator tomonidan Abonent uchun ajratilgan ularish texnik ma'lumotlari o‘zgarganda, shuningdek, «Internet va TAS-IX dan foydalana olish» Asosiy xizmati uchun shartnomani saqlagan holda Abonent rekvizitlari qayta rasmiylashtirilganda ilgari ajratiladigan statik IP adres Abonent uchun saqlanishi mumkin.

1.11. Ushbu xizmat bo'yicha savollar va qarorlar Abonent o'z vaqtida Sotuvlar Ofisiga yozma murojaat qilganida hal etilishi mumkin.